



Qo'qon DPI

**ILMIY
XABARLAR**

ISSN: 3030-3958

№ 8/2025

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



**Кокандский ГПИ.
Научный вестник**

УЎК 5/9(08) КБК 72я5 Қ 99	Bosh muharrir: Qo‘qon davlat universiteti rektori D.Sh.Xodjayeva Mas‘ul muharrirlar: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor Sh.Y.Pulatov Mas‘ul muharrir yordamchisi: Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i O.Bazarov Nashr uchun mas‘ul: M.I.Sobirova
MUASSIS: Qo‘qon davlat universiteti Qo‘qon DPI. ILMIY XABARLAR- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК. Кокандский ГПИ. Jurnal bir yilda o‘n ikki marta chop etiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2020-yil 9-iyulda 1085 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart. "Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar" ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31- martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix, 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika hamda 2024-yil 8-maydagi 5/7-sonli OAK tartib qoida komissiyasi qarori bilan Jismoniy madaniyat, psixologiya va san‘atshunoslik fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan. Tahririyat manzili: 150700, Qo‘qon shahar, Turon ko‘chasi, 23-uy. Tel.: (0373) 542-38-38. Sayt: www.kspi.uz journal.kspi.uz ISBN: 978-9943-7182-7-2 "CLASSIC" nashriyoti 2025	TABIIY FANLAR I.I.Гибадуллина, кандидат биологических наук, (РФ) Sh.S.Nomozov, texnika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) V.U.Xo‘jayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) I.R.Asqarov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.A.Ibragimov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) S.F.Aripova, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) Sh.V.Abdullayev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Yo.Abduganiyev, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) A.E.Kuchboyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) M.T.Isog‘aliyev, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) V.Yu.Isaqov, biologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) T.O.Turginov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) A.M.Gapparov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) I.I.Oxunov, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (O‘ZB) A.Ж.Хусанов-физика-математика fanlari nomzodi, docent (O‘ZB) O.A.Turdiyev, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) G‘.M.Ochilov, kimyo fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.Numonov, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) M.Madumarov, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (O‘ZB) FILOLOGIYA FANLAR Huseyin Baydemir filologiya fanlari doktori, professor, (TR) И.А.Киселёва, доктор филологических наук, профессор (РФ) В.В.Борисова, доктор филологических наук, профессор (РФ) К.А.Поташова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) Э.Р.Ибрагимова, кандидат филологических наук, доцент (РФ) S.Muhamedova, filologiya fanlari doktori, professor (O‘ZB) G.Isailov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (O‘ZB) IJTIMOIIY FANLAR Л.Г.Насырова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) З.В.Галлямова, кандидат исторических наук, доцент (РФ) D.N.Abdullayev, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) M.Rahimov, tarix fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘ZB) PEDAGOGIKA FANLAR Р.Ф.Ахтариева, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Н.Н.Масленникова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) Л.А.Максимова, кандидат педагогических наук, доцент (РФ) X.I.Ibragimov, pedagogika fanlari doktori, professor, akademik (O‘ZB) B.X.Xodjayev, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) B.S.Abdullayeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.A.Muslimov, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB) N.M.Egamberdiyeva, pedagogika fanlari doktori, professor (O‘ZB)



FORSIGHT MODELLASHTIRISH VA QAROR QABUL QILISH KO‘NIKMALARINING METODOLOGIK ASOSLARI

Hasanova Sumanbar Hamroqulovna

O‘zbekiston Finlandiya pedagogika institute dotsenti PhD

xasanovasumanbar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada foresight modellashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining metodologik asoslari yoritilgan. Foresight modellashtirish — bu kelajakdagi ehtimoliy stsenariylarni yaratish, muqobil yo‘llarni baholash va strategik yo‘nalishlarni aniqlash jarayonidir. Qaror qabul qilish esa — mavjud vaziyatni tahlil qilish, turli variantlarni ko‘rib chiqish va eng maqbul yechimni tanlash qobiliyatidir. Maqolada ushbu ikki jarayonning o‘zaro bog‘liqligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali ularni rivojlantirish usullari hamda ta’lim tizimiga integratsiya qilishning samarali yondashuvlari tahlil qilingan. Foresight modellashtirish orqali o‘quvchilar va mutaxassislar kelajakdagi noaniqliklarga tayyorlanadi, qaror qabul qilish ko‘nikmasi esa ularni real sharoitlarda ongli harakat qilishga undaydi.

Kalit so‘zlar: Foresight, modellashtirish, qaror qabul qilish, strategik tafakkur, metodologik asoslar, kelajak stsenariylari, noaniqlik, ta’lim jarayoni, kompetensiyalar, strategik rejalashtirish.

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРСАЙТ-МОДЕЛИРОВАНИЯ И НАВЫКОВ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы форсайт-моделирования и навыки принятия решений. Форсайт-моделирование — это процесс создания возможных сценариев будущего, оценки альтернативных путей и определения стратегических направлений. Принятие решений — это способность анализировать текущую ситуацию, рассматривать различные варианты и выбирать наиболее оптимальное решение. В статье анализируется взаимосвязь этих двух процессов, методы их развития посредством современных педагогических технологий и эффективные подходы к их интеграции в систему образования. Благодаря форсайт-моделированию студенты и специалисты готовятся к будущим неопределенностям, а навыки принятия решений побуждают их действовать осознанно в реальных условиях.

Ключевые слова: Форсайт, моделирование, принятие решений, стратегическое мышление, методологические основы, сценарии будущего, неопределенность, образовательный процесс, компетенции, стратегическое планирование.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF FORESIGHT MODELING AND DECISION-MAKING SKILLS

Abstract: This article discusses the methodological foundations of foresight modeling and decision-making skills. Foresight modeling is the process of creating possible future scenarios, evaluating alternative paths, and identifying strategic directions. Decision-making is the ability to analyze the current situation, consider various options, and choose the most optimal solution. The article analyzes the interrelationship of these two processes, methods for their development through modern pedagogical technologies, and effective approaches to integrating them into the education system. Through foresight modeling, students and professionals are prepared for future uncertainties, and decision-making skills encourage them to act consciously in real conditions.

Keywords: Foresight, modeling, decision-making, strategic thinking, methodological foundations, future scenarios, uncertainty, educational process, competencies, strategic planning.

Hozirgi tez o‘zgaruvchan va murakkab global muhit sharoitida ta’lim tizimi va boshqaruv sohalarida kelajakni ilmiy asosda modellashtirish va noaniqlik sharoitida samarali qaror qabul qilish zarurati yanada kuchaymoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonida foresight yondashuvi va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish inson kapitalini rivojlantirish, strategik fikrlash va kelajakdagi ehtimoliy vaziyatlarga tayyor bo‘lish uchun muhim omil hisoblanadi. Mazkur mavzu doirasida foresight modellashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining metodologik asoslarini chuqur tahlil qilish zamonaviy ta’lim va boshqaruv tizimi uchun dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’lim tizimi nafaqat bilim va malaka berishga, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan universal kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmoqda. Bu kompetensiyalar orasida strategik fikrlash, qaror qabul qilish, noaniqlik sharoitida harakat qilish va istiqbolni ilg‘ash kabi ko‘nikmalar yetakchi o‘rinni egallaydi. Ayniqsa, XXI asrda raqamli transformatsiya, ekologik muammolar, texnologik disbalans va geosiyosiy o‘zgarishlar sharoitida qaror qabul qilish faqat an‘anaviy yondashuvlar bilan cheklanishi mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, forsayt modellashtirish qaror qabul qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun metodologik platforma sifatida xizmat qiladi [Havas, 2003].

Qaror qabul qilish: tushuncha va nazariy yondashuvlar

Qaror qabul qilish — bu tanlovga oid jarayon bo‘lib, subyekt muayyan vaziyatda mavjud muqobil variantlar ichidan eng maqbulini tanlaydi. Bu jarayon kognitiv psixologiyada, menejment nazariyasida, axloqiy-falsafiy tafakkurda, siyosatshunoslik va pedagogik metodikalarda turli kontekstlarda yoritilgan. Simonning “cheklangan ratsionallik” modeli (Bounded Rationality)ga ko‘ra, inson har doim ham mukammal qarorlar qabul qila olmaydi, chunki uning axborotga ega bo‘lish darajasi, vaqt va resurslar cheklangan [Simon, 1979].

Shuningdek, qaror qabul qilish “muammoli vaziyatlar tahlili”, “alternativlarning baholanishi”, “risklarni ko‘rish” va “intuitsion-tahliliy balansni topish” kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi [Gigerenzer, 2007]. Immersive texnologiyalar, AI vositalari va forsayt metodlari aynan shu bosqichlarni mashq qilish imkonini beradi.

Qaror qabul qilish ko‘nikmasining shakllanish bosqichlari

Pedagogik nuqtai nazardan qaror qabul qilish ko‘nikmasi quyidagi ketma-ket bosqichlarda shakllanadi:

1. **Muammo qo‘yilishi** – real yoki simulyatsiyalangan holatda tanlov vazifasi paydo bo‘ladi;
2. **Variantlar ishlab chiqilishi** – o‘quvchi vaziyatda mavjud muqobil yechimlarni taklif qiladi;
3. **Baholash mezonlari** – har bir variantning afzallik va kamchiliklari, ehtimoliy xavf va foydalari ko‘rib chiqiladi;
4. **Tanlov** – eng maqbul, moslashtirilgan yoki ijodiy variant tanlanadi;
5. **Natijani monitoring qilish** – qarorning oqibatlari kuzatilib, refleksiya qilinadi [Kurbanov, 2022].

Bu jarayonlar immersive (AR/VR), gamifikatsiya, loyihaviy yondashuvlar orqali o‘zlashtirilgan taqdirda o‘quvchida yuqori darajadagi kognitiv refleksiya, tahliliy fikrlash va adaptivlik rivojlanadi.

Forsayt modellar asosida qaror qabul qilish mashqlari

Forsayt metodologiyasi qaror qabul qilishni real vaqtli prognoz, noaniqlik tahlili, ssenariy tuzish va tizimli fikrlash orqali mashq qilish imkonini beradi. Jumladan, quyidagi mashg‘ulotlar ta’limiy platformalarda (xususan, VR muhitda) samarali qo‘llaniladi:

- **Scenario-planning (Ssenariylar ishlab chiqish)** – turli kelajak manzaralarini ko‘zda tutib, ularning har biriga nisbatan strategik qarorlar ishlab chiqiladi;
- **Delphi metodi** – guruhli ekspertlar fikriga tayangan holda muqobil qarorlar baholanadi;
- **Trend tahlili** – mavjud axborotlar asosida istiqbolli yo‘nalishlar aniqlanadi;
- **SWOT va PEST tahlillari** – tashqi va ichki omillarni ko‘rib chiqish orqali muammolarning kompleks ko‘rinishi hosil qilinadi [Sardar, 2010].

Bu yondashuvlar orqali o‘quvchi nafaqat faktik bilimlarni, balki real hayotga mos qaror qabul qilish malakasini egallaydi.

Qaror qabul qilishda noaniqlik va kognitiv yuklanish

Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning noaniqlik bilan to‘qnash kelganda qanday qaror qabul qilishi ularning stressga chidamliligi, intuitson fikrlashi va kognitiv yondashuvga tayangan holda aniqlanadi. Bu borada immersive texnologiyalar real hayotdagi murakkablikni soddalashtiradi, ammo o‘quvchini “faol tanlovchi” holatiga keltirib, uning tanlovdagi javobgarligini oshiradi [Schwartz, 2004].

Shu boisdan, pedagog immersive muhitda qaror qabul qilishni faqat “to‘g‘ri javob”ga emas, balki tanlov jarayoni va tanlovga olib kelgan asoslarni o‘rganishga qaratishi lozim. Bu “jarayonga yo‘naltirilgan baholash” (process-oriented assessment) orqali amalga oshiriladi.

Qaror qabul qilish zamonaviy ta’limning eng muhim funksional kompetensiyalaridan biridir. Forsayt modellashtirish bu kompetensiyani shakllantirishga imkon beradigan ilg‘or metodologik asosdir. Ushbu metod orqali o‘quvchi:

- noaniqlik sharoitida harakat qilishni o‘rganadi,
- muqobil variantlar yaratish va baholashni mashq qiladi,
- reflektiv fikrlashni rivojlantiradi,
- va eng muhimi, kelajakni ongli ravishda rejalashtirishga qodir bo‘ladi.

Bu pedagogik maqsad immersive texnologiyalar yordamida zamonaviy platformalarda muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Forsayt modellashtirish ko‘nikmasining mazmuni va bosqichlari. Forsayt (foresight) — bu kelajakni ilgari ko‘rishdan iborat oddiy bashorat emas. U kompleks, ko‘p ishtirokchili, interaktiv va reflektiv jarayondir. An’anaviy prognozlash asosan mavjud tendensiyalarni ekstrapolyatsiya qilishga asoslangan bo‘lsa, forsayt metodologiyasi noaniqliklar, muqobillik, drayverlar, istiqboliy ssenariylar va harakat strategiyalari bilan ishlaydi [Miles, 2008]. Forsayt bu nuqtai nazardan qaror qabul qilish madaniyatini tubdan o‘zgartiradi — u o‘tmishga emas, kelajakka qarab harakat qilishni o‘rgatadi.

Forsayt ko‘nikmasi: konseptual yondashuv. Forsayt ko‘nikmasi — bu shaxsning kelajakdagi ehtimoliy voqealarni tasavvur qilish, ularni modelga solish, muqobil yo‘nalishlarni baholash va mos strategiyalarni ishlab chiqish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy elementlarga ega:

- **Kelajakni reflektiv tahlil qilish;**
- **Ssenariy fikrlash;**
- **Drayverlar asosida muqobil qarorlar tuzish;**
- **Noaniqlik sharoitida strategik rejalashtirish;**
- **O‘zgaruvchan muhitga adaptatsiya qila olish.**

Bu ko‘nikma ayniqsa innovatsion ta’lim, raqamli texnologiyalar, ekologiya, sog‘liqni saqlash, siyosat va menejment sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi [Sardar, 2010].

Forsayt modellashtirishning asosiy bosqichlari. Forsayt modellashtirish metodologiyasi odatda besh asosiy bosqich asosida amalga oshiriladi. Har bir bosqich o‘ziga xos metodik uslublarni, tadqiqot shakllarini va strategik yondashuvlarni o‘z ichiga oladi:

1. Vaziyatni tahlil qilish va diagnostika. Bu bosqichda mavjud vaziyatning holati chuqur tahlil qilinadi. SWOT (kuchli va zaif tomonlar, imkoniyatlar, tahdidlar) va PESTLE (siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, huquqiy va ekologik omillar) kabi tahlil metodlari keng qo‘llaniladi. Ushbu tahlil:

- mavjud resurslar va cheklovlarni aniqlash,
- o‘quvchilarda muammo tahlili kompetensiyasini shakllantirish,

- muammoli maydonni belgilash imkonini beradi [Cassingena Harper, 2004].

Bu bosqichni o‘quv jarayonida interaktiv muhitda (masalan, VR/AR platformalarda) amalga oshirish, real hayotdagi kompleks tizimlar (iqlim o‘zgarishi, energetika inqirozi, demografik jarayonlar)ni modellashtirishga yordam beradi.

2. Kalit tendensiyalar va drayverlarni aniqlash. Drayverlar — bu kelajakdagi muhim o‘zgarishlarga turtki beradigan asosiy kuchlardir. Forsayt metodologiyasida quyidagi asosiy drayverlar aniqlanadi:

- raqamli transformatsiya va AI rivoji,
- iqlim o‘zgarishlari,
- siyosiy qutblanish,
- ta’limdagi inklyuzivlik va raqamli tengsizlik,
- gender tengligi va migratsiya oqimlari [Dator, 2009].

Tadqiqot davomida ekspert guruhlar bilan intervyular, tarmoq tahlillari, Delphi metodikasi yordamida drayverlar baholanadi va ularning ehtimoliy ta’siri o‘rganiladi. Bu bosqich shuningdek, o‘quvchilarda kelajakni tizimli anglash va strategik fikrlash kompetensiyasini rivojlantiradi.

3. Kelajak ssenariylarini ishlab chiqish. Ushbu bosqichda “What if...?” yondashuvi asosida turli variantlarda ssenariylar ishlab chiqiladi:

- **Optimistik** ssenariy – ideal holat, ijobiy tendensiyalar ustun;
- **Pessimistik** ssenariy – inqiroz holati, salbiy drayverlar kuchli;
- **Eng ehtimoliy** ssenariy – mavjud faktlar asosida muqobil kelajak manzarasi.

Bu bosqich — talabalarda tanqidiy fikrlash, bashorat qila olish, ssenariylar orqali strategik qarorlar ishlab chiqish malakasini rivojlantiradi.

4. Strategik ustuvorliklarni aniqlash. Bu bosqichda eng maqbul yo‘nalish tanlanadi. Ssenariylar tahlil qilinib, quyidagi savollarga javob beriladi:

- Qaysi yo‘nalish ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan barqarorroq?
- Qanday risklar mavjud?
- Kimlar ushbu strategiyadan manfaatdor?

Bu yerda “stakeholder mapping” usuli, manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish (foydalanuvchi dizayni), “backcasting” (orqaga qarab rejalashtirish) metodlari qo‘llaniladi. O‘quvchilarning ishtiroki bilan ishlab chiqilgan ustuvorliklar natijasi real strategik hujjatlar yaratishga olib keladi [Havas, 2003].

5. Monitoring va qayta moslashuv. Forsayt — bu bir martalik akt emas, balki doimiy yangilanishni talab qiladigan tsiklik jarayondir. Muhit o‘zgarar ekan, strategiyalar ham qayta ko‘rib chiqilishi lozim. Bu bosqich:

- indikatorlar tizimi orqali monitoring olib borish,
- ma’lumotlar asosida strategiyalarni yangilash,
- o‘zgarishlarga mos ravishda moslashuvchanlikni oshirishni o‘z ichiga oladi.

Masalan, pandemiya sharoitida ta‘lim strategiyalarini qayta baholash va moslashtirish aynan shu bosqichda amalga oshiriladi.

Forsayt modellashtirish — bu nafaqat kelajak haqida fikr yuritish, balki uni faol ravishda shakllantirish vositasidir. Uning asosiy afzalliklari:

- kompleks yondashuvni shakllantirishi,
- qaror qabul qilish malakasini oshirishi,
- o‘quvchini kelajak mas‘uliyatiga tortishi,
- strategik fikrlash va reflektivlikni kuchaytirishidir.

Bu jarayonni ta‘limda qo‘llash orqali o‘quvchilarni “bugunning bilimdoni” emas, balki “ertaning mas‘ul va ongli lideri” sifatida shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Foresight modellashtirish va qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanishi bugungi murakkab va tez o‘zgaruvchan zamonda har bir shaxs va tashkilot uchun muhim strategik ustunlik yaratadi. Bu ko‘nikmalar orqali o‘quvchilar va mutaxassislar noaniq vaziyatlarni tahlil qilish, kelajakni ilmiy asosda tasavvur qilish va ehtimoliy ssenariylarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Qaror qabul qilish ko‘nikmasining rivojlanishi esa ularni real hayotdagi muammolarni hal etishda mustaqil, mas‘uliyatli va strategik fikrlovchi shaxs sifatida shakllantiradi. Ta‘lim tizimida foresight yondashuvi va qaror qabul qilish ko‘nikmalarini metodologik jihatdan asoslab, ularni integratsiya qilish zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish, inson salohiyatini kuchaytirish va ta‘limni hayotga yaqinlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Anderson A. Future-Proofing Education: Teaching Strategic Thinking and Foresight. — London: Springer, 2017.
2. Anderson A. Futures Literacy: A Key Competence for the 21st Century. – OECD Education Working Papers, 2017.
3. Anderson C. Foresight education and the development of future-oriented competencies. Futures, 2017.
4. Anderson C. The Adaptive School: A Sourcebook for Developing Collaborative Groups. – California: MiraVia, 2017.
5. Anderson L.W. Developing Thinking Skills in the Classroom. – London: Routledge, 2017.
6. Boud D., Keogh R., Walker D. Reflection: Turning Experience into Learning. – Routledge, 1985.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

TALABALARNING KREATIVLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA BLOOM TOKSONOMIYASIDAN FOYDALANISH <i>Umorova Dilnoza Odilbekovna</i>	4
TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIMIDA RAQAMLI TA'LIM PLATFORMALARINING O'RNI VA INNOVATSION IMKONIYATLARI <i>Xudoyberdiyev Rahmatillo Fozilliddinovich</i>	12
TALABALARDA PYTHON TILIDA DASTURLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI <i>Xolmirzayev Xoshimjon Erkinjonovich</i>	18
ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИЯ О «СТРЕССЕ» <i>Мамасаидов Жамолидин Тургунбоевич, Курбанова Нулуфар Батыровна, Шерматов Расулжон Мамасиддинович</i>	25
БЎЛАЖАК ТАРИХ ФАНИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИ КОГНИТИВ КМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТРИЗ ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВОСИТАСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ <i>Эргашев Баходир Олимжон ўғли</i>	36
РОЛЬ ТВОРЧЕСКИХ ЗАДАНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ РЕФЛЕКСИИ СТУДЕНТОВ-ФИЛОЛОГОВ <i>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</i>	42
FARMAKODINAMIKA FANINING TIBBIY TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI <i>Samatov Dilshodbek Tohirjonovich, O'rinboyev Lochinbek Xasanboy o'g'li</i>	50
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TAYANCH HAYOTIY KOMPETENSIYALAR MAZMUNI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI <i>Davletov Erkaboy Yusubovich</i>	54
“TALABALARNING MANTIQUIY FIKRLASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRUVCHI METODLAR TAHLILI” <i>Egamberdiyeva Diyora Akbarjon qizi</i>	60
OLIY TIBBIY TA'LIMNI KREDIT MODUL TIZIMI ASOSIDA TASHKIL ETISH ASOSLARI VA XUSUSIYATLARI <i>Samatov Dilshodbek Tohirjonovich, No'monova Go'zaloy Davronbek qizi</i>	65
HIKOYA MATNI USTIDA ISHLASHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK PLATFORMALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI <i>Jumaniyozova Nafosat Farxod qizi</i>	71
MUSTAQIL TA'LIM – BU TALABA ZARUR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR SHAKLLARIDAN IBORAT <i>Raximova Kamola G'ayratovna</i>	79
KREDIT TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING O'QUV FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA DIDAKTIK IMKONIYATLAR <i>Raximova Kamola G'ayratovna</i>	84
KLINIK FARMAKOLOGIYA FANINI O'QITISHDA FARMAKOKOMPETENTLIK TALABLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Samatov Dilshodbek Tohirjonovich, Sobirjonov Islombek Tavakkaljon o'g'li</i>	91
MOTIVATIONAL COMPONENTS OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM: CURRICULUM, TEACHER PERSONALITY, AND TEACHING METHODS <i>Ayakulov Ulug'bek Abdug'affor o'g'li</i>	94

YOZUV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH: NAZARIY QARASHLAR VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR <i>Amanbayeva Oydin Urazali qizi</i>	103
SOHAVIY TERMINLARNI O‘QITISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA <i>Ahmedova Shahnoza Farhod qizi</i>	109
TALABALAR MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI MUHITNING AHAMIYATI <i>F.K.Payanova</i>	117
RAHBAR KADRLARNING INNOVATSION BOSHQARUV KOMPETENTLIGINI INTEGRALLASHGAN AXBROT-METODIK TIZIMINING ILMIY-NAZARIY TAHLILI <i>Azizov Umidjon Sobir o‘g‘li</i>	123
BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARI MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SINFDAN TASHQARI TO‘GARAKLARDAN FOYDALANISH <i>Xudaynazarov Egambergan Madrahimovich</i>	131
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYALARI ASOSIDA KASBIY TA‘LIM MUASSASALARI RAHBARLARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI <i>Boboyev F.A</i>	138
FASILITATIV YONDASHUV ASOSIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOGNITIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI: MARKAZIY OSIYO VA G‘ARB TAJRIBALARI TAQQOSLANMASI <i>Rakhmankulova Nafisa</i>	149
REFLEKTIV TA‘LIMNING MAZMUNI, MOHIYATI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI <i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	155
TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH BOSQICHLARI <i>Nurmanov Alisher Shaymardonovich</i>	159
DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI FANINI TALABALARGA O‘RGATISHNING ZAMONAVIY METODLARI <i>Shamsudinova Malika Ulug‘bek qizi</i>	165
TIBBIYOT OLIY TA‘LIM MUASSASALARI TALABALARINING KLINIK FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI <i>Isroilov Farxodjon Ilxomjon og‘li</i>	169
KOLLOKATSIYA ASOSIDA INGLIZ TILIDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODIK YONDASHUVI <i>Adxamova Shirin Farhodjon qizi</i>	176
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O‘RTA TA‘LIMDAGI O‘RNINI ANIQLASH VA ULARNI INGLIZ TILI TO‘GARAKLARIDA O‘QITISH METODIKASI <i>Akbarova Mohinur Alisher qizi</i>	181
MUSIQA TA‘LIMIDA BADIY IJODNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI <i>Saddinov Alisher Atadjanovich</i>	186
TARJIMA TA‘LIMIDA PARALLEL KORPUSLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLAR <i>Anorxon Axmedova</i>	191
KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARIDA SODDA VA MURAKKAB MASALALAR	197

U.Y.Axmedova	
ONA TILI VA ADABIYOT FANLARIDA ENERGIZERLARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI <i>Dilnoza Xamroyeva Jahongir qizi</i>	202
PRINCIPLE OF ADAPTABILITY FOR MIXED LEVEL OF STUDENTS IN EFL CLASSROOM <i>Erkinova Xursanoy A'zamjon kizi</i>	210
ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВНЕДРЕНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА БАЗЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ <i>Гафурова Махфуза Аббасовна</i>	215
TARIX O'QITUVCHILARI TAYYORLASH JARAYONIDA RAQAMLI PEDAGOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI <i>G'aniyev Shaxzod Ravshanbekovich</i>	224
FORSIGHT MODELLASHTIRISH VA QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Hasanova Sumanbar Hamroqulovna</i>	231
KASBIY TA'LIMDA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMNI TASHKIL QILISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR <i>Mamajonova Kamola Akramovna</i>	237
BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINING AHAMIYATI <i>Nabixonova Masturaxon Ibrohimxon qizi</i>	242
TABIIY FANLARNI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARNING SAMARADORLIGI <i>Yunusova Zuxra To'liqinjonovna</i>	248
"4K-MODEL" ASOSIDA AXBOROT BILAN ISHLASHNING SHART-SHAROITLARI <i>Ismoilov Ravshan Yakubjon o'g'li</i>	255
STEAM-LOYIHASIDAN FOYDALANIB FIZIKA FANINI O'QITISHNI TASHKIL ETISH METODIKASI <i>Abdullayeva Shoirra Isajanovna</i>	261
YOSHLAR TARBIYASIGA YONDASHUVLAR VA ULARDAN FOYDALANISH TAMOIYILLARI <i>Suvanova Gulbaxor Baxromovna</i>	266
BOLALARNI MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIGA INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA JALB ETISHNING PEDAGOGIK VA TASHKILIY YO'NALISHLARI <i>Karimova Mohichexra Rixsibayevna</i>	271
MUSTAQIL ISHLASHNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING O'RNI <i>Zulxumor Mirzayeva</i>	276
FATTOHXON MAMADALIYEV HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI <i>Toxirov Botirbek G'ofurjon o'g'li</i>	281
ALISHER NAVOIY G'AZALLARI FATTOHXON MAMADALIYEV MUSIQIY TALQINIDA <i>Toxirov Botirbek G'ofurjon o'g'li</i>	288
DEVELOPING READING COMPETENCE IN ENGLISH AS A FOREIGN	296

Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar



Кокандский ГПИ. Научный вестник

“Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar” ilmiy jurnali OAK Rayosatining 2021-yil 31-martdagi qarori bilan OAK ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kimyo, biologiya, filologiya, tarix hamda 2023-yil 5-maydagi №337/6 sonli Rayosat qarori bilan Pedagogika fan tarmoqlari bo‘yicha milliy nashrlar sifatida kiritilgan.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma’lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

Bosishga ruxsat etildi: 2025-y. Nashriyot bosma tabog‘i –16,375.

«Poligraf Super Servis» МЧЖ

150114, Farg‘ona viloyati, Farg‘ona shahar, Aviasozlar ko‘chasi 2 –uy

Elektron manzil: kspi_info@edu.uz

№8/2025